

4. Oxford, R. L. (1990a). Language learning strategies (Massachusetts: Heinle and Heinle Publisher).
5. Oxford, R. L. (1990b). Language learning strategies: What every teacher should know (New York; Newbury House).

QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Abduvaxobova Maftuna Vohid qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti Xorijiy Filologiya

Fakultetining 1-bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari hamda chet tillarini o'rgatishda birinchi va ikkinchi tilni fonetik, grammatik jihatdan taqqoslash orqali o'zlashtirishning qulayligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar.** Qiyosiy tilshunoslik, genealogik tasnifi, chet tillarini o'rgatish, interfaol metodlar, audiolingual metod, autentik materiallar, fonetik taqqoslash.*

Darhaqiqat, bu olamda butun tirik mavjudotlar aro tafakkur qilish qobiliyati koinot gultoji bo'lgan insongagina berilgan. Hozirgi kunda mana shu odamzotdagi fikrlash nafaqat texnika taraqqiyoti uchun, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishiga ham ulkan yutuqlar olib kelmoqda. Ayniqsa, tilshunoslik sohasida mana bir necha asrlar mobaynida juda ko'p izlanishlar olib borilmoqda va yangiliklar yaratilmoqda. Xususan, bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lgan tillarni o'rganish borasida bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan.

XVIII-XIX asrlarda olimlar tillarning orasida farqli va o'xshashlik xususiyatlarini payqaganlar. Bu esa, o'z navbatida, yangi fanning tadqiqot sohasi bo'lgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikni yuzaga keltirgan. Qiyosiy tilshunoslik (*komparativistika*) — tilshunoslikning qarindosh tillarini, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq tillarni o'rganuvchi, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo'yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi

sohasi.[5] Til oilalardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (*bobo til*)dan kelib chiqqanligini aniqlash (*tillarning genealogik tasnifi*) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi.[3] Qiyosiy tilshunoslik rivojlanish tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Masalan, Mahmd Koshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida ham ikki tilni, ya'ni arab va turk tillini o'zaro solishtirilganiga guvoh bo'lamiz va bu orqali u turk tilining ko'plab lisoniy jihatlarini ochib bergan.

Ma'lumki, o'quv yurtlarida xorijiy tillarni qulay, tez va oson o'qitish hali hanuz dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ko'p tillarni bilish esa bugungi texnika asri uchun eng kerakli ko'nikma deya qaralyapdi. Shu bois pedagoglardan chet tillarini o'rgatishning yangi usullarini yaratish va ulardan keng foydalanish talab qilinmoqda. Qiyosiy tilshunoslik man shu jihatdan ham muhimki, u ikki tilning lingvistik tomonlarini bir-biriga solishtirgan holda osonroq o'rganishga imkon beradi. Quyida buni lug'aviy urg'u orqali tushuntiramiz.

Xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish har bir kishining hayotiy zaruratiga aylana boshlagan bir davrda o'qituvchilar va til o'rganuvchilar oldida fonetik va fonologik xatoliklarni qilish ko'p kuzatilmoqda. Ya'ni chet tilini o'qitishda va o'rganishda ona tilining talaffuzdagi ta'sirini bartaraf etish masalasi hamon muammo darajasida qolmoqda.[1] Har qanday tilni o'rganishdan maqsad aniq va tushunarli muloqotni shakllantirishdir. Buning uchun to'g'ri talaffuz gramatikadan ustun turadi, shuning uchun fonetika, ayniqsa, so'z urg'usi mos qo'yilishini bilish kerak. Barcha tillarda ham urg'u normalari aynan bir xil xarakterga ega bo'lmagani sababli ularning alohida xususiyatlarini aniqlash muhimdir. Negaki, til o'rganuvchilar mahalliy tildagi urg'u hamda o'rganilayotgan til urg'usining o'xshash va farqli tomonlarini bilishi zarur.

Ingliz tilida urg'u qo'yish qiyinligi shuki, uning o'zgaruvchanligi, urg'uga ta'sir qiluvchi omillar ko'pligi, tilshunoslarning urg'u normalariga nisbatan qarama-qarshi fikrlarining mavjudligi, nutqda o'zbek tiliga nisbatan o'z ahamiyatining ustunligi, uning boshqa til sathlari (morfologiya, leksikologiya,

morfemika, etimologiya) bilan chambarchas bog'liqligi, akustik va artikulyatsion belgilarining o'ziga xosligining mavjudligidir. Albatta, o'zbek va ingliz tillarini solishtirish biroz mushkul, shunga qaramay ushbu muammoni yengishga ba'zi metodlar, o'yinlar va texnologiyalardan (*Real English dasturi podcastlari talaffuzning shakllanishi uchun samarali*) foydalanish yordam beradi.

Audiolingual metod eshitish va gapirish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiruvchi keng tarqalgan metodlardan biri. Ushbu metodning urg'uni o'qitishda samarililigi ancha yuqori. Masalan, tildagi normalar, avvalo, og'zaki nutqqa tadbiq qilinib, o'qish va yozish tinglab tushunish va gapirish ko'nikmasidan keyin amalga oshiriladi. Ko'proq taqlid qilish va takrorlash mashqlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari tilni o'rgatishda, asosan, autentik materiallardan, til sohiblarining asl nutqlari yozib olingan tasmlar qo'llaniladi.[4] Afsuski, bu usul til o'rganuvchining o'z ona tilisini siqib chiqarish hisobiga sodir bo'ladi. Buning oldini olish uchun dastlab urg'uning ahamiyati va uni hosil qilishni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilida oddiygina ikki yoki uch bo'g'inli so'zni xatosiz talaffuz qilish uchun u so'zni grammatik jihatdan o'rganish yetarli emas. Aksincha, u so'zni eshitish va nutqda ishlatish kerak(*parrot (O o), imagine(O o o), bicycle(O o o)*). O'zbek tilida esa so'zlarni, birinchi navbatda, morfologik qaysi turkumdan ekanligini bilish, keyin esa sun'iy talaffuz qilib ko'rish orqali urg'u o'rni aniqlanadi, ya'ni ingliz tili kabi ko'p faktorlarga bog'liq emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, qiyosiy tilshunoslik ayni paytda har qanday tilni kelib chiqishi, shakllanishi va o'zgarish jarayonlarini o'rganish uchun asosiy fan sohasi hisoblanadi. Bundan tashqari, bir qancha tajribalar ikki tilni har jihatdan taqqoslab o'rganish o'quvchilarga ancha foydaliroq ekanligini tasdiqlagan. Shunday ekan, o'quv dargohlaridagi pedagoglarning chet tillarini o'zbek tiliga ham grammatik, ham fonetik taraflama taqqoslab o'rgatish mahoratini shakllantirish lozim. Ishonamanki, bu dars jarayonlarini ham qiziqarli va maroqli qiladi hamda talaffuzdagi kamchiliklar birmuncha kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xolmatov Sh. "Ingliz va o'zbek tillarida so'z urg'usining o'ziga xos xususiyatlari" - Farg'ona – 2017. 73-b.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/>. Qiyosiy-tarixiy-tilshunoslik-komparativistika.
3. Mahkamova Sh. "The Development of Comparative Linguistics in the Pre-Independence Period of Uzbekistan" /International Journal on Integrated Education/ Feb 2022. 136-b.
4. <https://www.researchgate.net/publication/376140997>. Using_applied_linguistics_in_teaching_The_role_of_linguistics_in_the_English_language.
5. Negmatova M. "Qiyosiy tilshunoslikning kelib chiqishi va uning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlaridan farqli jihatlari" /образование наука и инновационные идеи в мире/ Toshkent -Май–2023. 29-b.
6. Z. Xolmanova. "Tilshunoslik nazariyasi". Toshkent – 2022 y 258-b.

THE ROLE OF COMPARATIVE LINGUISTICS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Arabboeva Ozoda

Student, English Philology Faculty UzSWLU

Group: 2028

Supervisor: **Kuldasheva Shakhnoza**

Abstract. *The purpose of this thesis is to investigate the use of comparative linguistics to language education, with a focus on teaching foreign languages. The study of language similarities and differences, or comparative linguistics, provides important insights that can improve teaching strategies. Teachers can create more effective teaching strategies that accommodate linguistic diversity and promote language acquisition by looking at phonetic, grammatical, and lexical comparisons.*